



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 4

2026

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI TANQIDIY FIKRLASHGA O'RGATISH JARAYONIGA INNOVATSION YONDASHUVNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

To'xtaxo'jayeva Muazzamxon Shavkatjon qizi
Namangan davlat pedagogika instituti, tayanch doktoranti

Annotatsiya

Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda tanqidiy fikrlashni shakllantirish jarayoniga innovatsion yondashuvlarning pedagogik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda muammoli o'qitish, savol-javob metodlari, o'yin asosidagi ta'lim va interaktiv texnologiyalarning bolalar fikrlash faoliyatiga ta'siri yoritiladi. Shuningdek, maktabgacha yoshdagi bolalarning kognitiv rivojlanish xususiyatlari inobatga olingan holda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish mexanizmlari asoslab beriladi. Natijada innovatsion pedagogik yondashuvlar bolalarning mustaqil fikrlashi, tahlil qilish qobiliyati va qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirishda samarali ekanligi aniqlanadi.

Kalit so'zlar: tanqidiy fikrlash, maktabgacha ta'lim, innovatsion yondashuv, pedagogik texnologiyalar, kognitiv rivojlanish, muammoli o'qitish, interaktiv metodlar, o'yin texnologiyalari.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ ИННОВАЦИОННОГО ПОДХОДА В ФОРМИРОВАНИИ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА

Тухтахужаева Муаззамхон Шавкатжон кизи
Наманганский государственный педагогический институт, базовый докторант

Аннотация

В данной статье анализируются педагогические возможности инновационных подходов в формировании критического мышления у детей дошкольного возраста. Рассматривается влияние проблемного обучения, вопросно-ответных методов, игровых технологий и интерактивных форм обучения на развитие мыслительной деятельности детей. Особое внимание уделяется когнитивным особенностям дошкольников и механизмам развития критического мышления. В результате обоснована эффективность инновационных педагогических подходов в развитии самостоятельного мышления, аналитических способностей и навыков принятия решений у детей.

Ключевые слова: критическое мышление, дошкольное образование, инновационный подход, педагогические технологии, когнитивное развитие, проблемное обучение, интерактивные методы, игровые технологии.

PEDAGOGICAL OPPORTUNITIES OF AN INNOVATIVE APPROACH TO DEVELOPING CRITICAL THINKING IN PRESCHOOL CHILDREN

To'xtakho'jayeva Muazzamkhon Shavkatjon qizi
Namangan State Pedagogical Institute, Basic Doctoral Student

Abstract

This article examines the pedagogical potential of innovative approaches in developing critical thinking in preschool children. It analyzes the impact of problem-based learning, question-answer techniques, play-based learning, and interactive methods on children's cognitive

development. Special attention is given to the cognitive characteristics of preschoolers and the mechanisms of critical thinking development. The findings demonstrate that innovative pedagogical approaches effectively enhance children's independent thinking, analytical skills, and decision-making abilities.

Keywords: critical thinking, preschool education, innovative approach, pedagogical technologies, cognitive development, problem-based learning, interactive methods, play-based learning.

Zamonaviy ta'lim tizimi shaxsni har tomonlama rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lib, unda bilimlarni oddiy yodlashdan ko'ra, ularni tahlil qilish, baholash va amaliyotda qo'llash ko'nikmalarini shakllantirish ustuvor vazifa sifatida qaralmoqda. XXI asr ta'lim talablari doirasida tanqidiy fikrlash kompetensiyasi tayanch kompetensiyalardan biri sifatida e'tirof etiladi. Shu nuqtai nazardan, maktabgacha ta'lim bosqichidayoq bolalarda mustaqil fikrlash, savol berish, muammoni anglash va yechim izlash ko'nikmalarini rivojlantirish dolzarb pedagogik vazifaga aylanmoqda. Tanqidiy fikrlash axborotni tahlil qilish, solishtirish, asosli xulosa chiqarish va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati bo'lib, u shaxsning intellektual rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Ushbu fikrlash turi bolalarda nafaqat bilimlarni chuqurroq o'zlashtirishga, balki ularni real hayotiy vaziyatlarda qo'llashga ham yordam beradi. Tanqidiy fikrlashga ega bola atrof-muhitni faol idrok etadi, savol beradi, muqobil fikrlarni qabul qiladi va o'z pozitsiyasini asoslay oladi. Shu sababli mazkur ko'nikmani shakllantirish ta'lim jarayonining muhim maqsadlaridan biri hisoblanadi.

Maktabgacha yosh davri bolalarning kognitiv rivojlanishida eng muhim bosqichlardan biri bo'lib, aynan shu davrda ularning tafakkuri faol shakllanadi. Bolalar atrof-dagi dunyoni o'rganish jarayonida savollar beradi, tajriba qiladi va yangi bilimlarni egallaydi. Bu jarayonni to'g'ri tashkil etish orqali tanqidiy fikrlashning asosiy elementlarini rivojlantirish mumkin. Ayniqsa, o'yin faoliyati, muammoli vaziyatlar va interaktiv metodlar bolalarda fikrlash jarayonini faollashtirishda samarali vosita hisoblanadi. Biroq amaliyotda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish yetarli darajada tizimli yo'lga qo'yilmagan. Ko'pincha ta'lim jarayoni reproduktiv faoliyat bilan cheklanib, bolalarning mustaqil fikrlashi va muammoni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga yetarli e'tibor qaratilmaydi. Innovatsion pedagogik yondashuvlar imkoniyatlaridan to'liq foydalanilmayotgani ham ushbu muammoning dolzarbligini oshiradi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi maktabgacha yoshdagi bolalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish jarayonida innovatsion yondashuvlarning pedagogik imkoniyatlarini aniqlash va ularni ilmiy asosda tahlil qilishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi: tanqidiy fikrlash tushunchasining nazariy asoslarini o'rganish, maktabgacha yoshdagi bolalarda fikrlash rivojining xususiyatlarini aniqlash, innovatsion pedagogik metodlarning samaradorligini tahlil qilish hamda ularni ta'lim jarayonida qo'llash imkoniyatlarini asoslab berish.

Mazkur mavzu doirasida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar maktabgacha ta'limda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish masalasining turli jihatlarida o'rganilganini ko'rsatadi. Har bir yo'nalishda muhim nazariy asoslar alohida olimlarning qarashlari orqali shakllangan.

Mahalliy olimlar orasida maktabgacha pedagogika va fikrlash rivoji masalalarini tadqiq etgan F.R. Qodirovaning ishlari alohida e'tiborga loyiq. U maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishida ta'lim jarayonini faqat bilim berish bilan cheklemasdan, ularni mustaqil fikrlashga yo'naltirish zarurligini ta'kidlaydi. Qodirovaning fikricha, bolalarda fikrlash jarayoni faoliyat asosida, ayniqsa o'yin va muammoli vaziyatlar orqali samarali rivojlanadi. Bu yondashuv tanqidiy fikrlashni shakllantirishda faol pedagogik muhit yaratish zarurligini ko'rsatadi.

Xorijiy tadqiqotchilar orasida tanqidiy fikrlash nazariyasini rivojlantirgan Robert Ennis muhim o'rin tutadi. U tanqidiy fikrlashni "aqliy asoslangan qaror qabul qilish va fikrni baholashga

yo‘naltirilgan ongli hamda refleksiv jarayon” sifatida ta‘riflaydi. Ennisning fikricha, tanqidiy fikrlash shaxsning axborotni tahlil qilish, asoslash va xulosa chiqarish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Bu qarash maktabgacha yoshdan boshlab bolalarda fikrlashning mantiqiy va baholovchi komponentlarini shakllantirish zarurligini asoslaydi.

Erta yoshdagi ta‘limda fikrlash rivoji masalasini chuqur o‘rganishda Jan Piaje qarashlari ham muhim hisoblanadi. U bolalarning tafakkuri bosqichma-bosqich rivojlanishini asoslab, maktabgacha yoshni preoperatsional bosqich sifatida tavsiflaydi. Piaje fikricha, bu davrda bolalarda tasavvur, ramziy fikrlash va savol berish qobiliyati rivojlanadi, bu esa tanqidiy fikrlashning dastlabki asoslarini shakllantirish uchun qulay sharoit yaratadi.

Innovatsion yondashuvlar doirasida muammoli o‘qitish nazariyasini ishlab chiqqan Jon Dyui fikrlari alohida ahamiyatga ega. Dyui ta‘lim jarayonini muammo yechishga yo‘naltirilgan faoliyat sifatida ko‘rib, o‘quvchi bilimni tayyor shaklda emas, balki muammoni hal qilish jarayonida egallashi kerakligini ta‘kidlaydi. Uning fikricha, aynan muammoli vaziyatlar shaxsda mustaqil va tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi. Shuningdek, inquiry-based learning, ya‘ni izlanishga asoslangan o‘qitish yondashuvini rivojlantirgan Jerom Bruner ta‘lim jarayonida bolani faol tadqiqotchi sifatida ko‘rish zarurligini asoslaydi. Bruner fikricha, o‘quvchi bilimni mustaqil izlash va kashf etish orqali egallaganida, uning fikrlash jarayoni chuqurlashadi va kreativ hamda tanqidiy tafakkur shakllanadi. O‘yin faoliyati maktabgacha yoshdagi bolalarda fikrlash rivojining asosiy vositasi hisoblanadi.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda innovatsion yondashuvlar muhim rol o‘ynaydi. Ushbu yondashuvlar bolani passiv bilim oluvchi emas, balki faol o‘rganish subyekti sifatida ko‘radi va uning fikrlash faoliyatini faollashtirishga qaratiladi. Interaktiv metodlar, jumladan, savol-javob, guruhli ishlash, muhokama va rolli o‘yinlar bolalarni faol muloqotga jalb etadi. Bu metodlar orqali bolalar turli nuqtai nazarlarni eshitadi, ularni taqqoslaydi va o‘z fikrini shakllantiradi. Raqamli va o‘yin texnologiyalari esa zamonaviy ta‘limda keng qo‘llanilmoqda. Multimediyavi vositalari, interaktiv o‘yinlar va raqamli platformalar bolalarning qiziqishini oshiradi hamda ularni faol o‘rganishga undaydi. Bu texnologiyalar orqali murakkab tushunchalar sodda va tushunarli shaklda taqdim etiladi, bu esa fikrlash jarayonini yanada samarali qiladi. Natijada innovatsion yondashuvlar tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun qulay pedagogik muhit yaratadi va bolalarning intellektual salohiyatini to‘liq namoyon etish imkonini beradi. Mazkur tadqiqot maktabgacha yoshdagi bolalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda innovatsion yondashuvlarning samaradorligini aniqlashga qaratilgan bo‘lib, unda kompleks pedagogik metodlar qo‘llanildi. Tadqiqotda pedagogik kuzatish, eksperiment, suhbat va savol-javob, diagnostik topshiriqlar hamda taqqoslash-tahlil metodlaridan foydalanildi. Kuzatish orqali bolalarning fikrlash faoliyati, savol berish faolligi va muammoli vaziyatlarga munosabati o‘rganildi. Eksperiment esa innovatsion metodlarning amaliy samaradorligini aniqlash maqsadida tashkil etildi. Diagnostik topshiriqlar yordamida bolalarning tanqidiy fikrlash darajasi baholandi, taqqoslash metodi esa boshlang‘ich va yakuniy natijalarni solishtirish imkonini berdi. Tadqiqot ishtirokchilari sifatida Namangan viloyati 53-sonli maktabgacha ta‘lim tashkiloti tarbiyalanuvchilari jalb qilindi. Umumiy ishtirokchilar soni 67 nafarni tashkil etdi. Ular pedagogik eksperiment talablari asosida tajriba va nazorat guruhlari ajratildi. Tajriba guruhida innovatsion yondashuvlar — muammoli o‘qitish, o‘yin texnologiyalari va interaktiv metodlar qo‘llanilgan bo‘lsa, nazorat guruhida an’anaviy ta‘lim usullari asosida mashg‘ulotlar olib borildi.

Jadval 1. Tadqiqot ishtirokchilarining taqsimlanishi

Guruh turi	Bolalar soni	O‘qitish yondashuvi
Tajriba guruhi	34 nafar	Innovatsion metodlar asosida
Nazorat guruhi	33 nafar	An’anaviy metodlar asosida
Jami	67 nafar	—

Eksperiment jarayoni uch bosqichda tashkil etildi: boshlang‘ich diagnostika, tajriba bosqichi va yakuniy tahlil. Boshlang‘ich bosqichda bolalarning tanqidiy fikrlash darajasi

aniqlanib, ularning savol berish, tahlil qilish va xulosa chiqarish ko'nikmalari baholandi. Tajriba bosqichida esa innovatsion yondashuvlar asosida maxsus mashg'ulotlar tashkil etildi. Bu mashg'ulotlarda muammoli vaziyatlar, savol-javob metodlari, o'yin asosidagi topshiriqlar va izlanishga yo'naltirilgan faoliyatlar qo'llanildi. Yakuniy bosqichda esa olingan natijalar qayta diagnostika asosida tahlil qilinib, guruhlar o'rtasidagi farqlar aniqlashtirildi.

Baholash mezonlari sifatida bolalarning tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini ifodalovchi quyidagi indikatorlar tanlab olindi: savol berish faolligi, muammoli vaziyatni anglash darajasi, tahlil qilish qobiliyati, mustaqil xulosa chiqarish ko'nikmasi hamda fikrni asoslash darajasi. Har bir mezon uch darajada — past, o'rta va yuqori ko'rsatkichlar asosida baholandi. Ushbu mezonlar yordamida bolalarning fikrlash jarayonidagi o'zgarishlar aniq va tizimli ravishda qayd etildi. Natijada qo'llanilgan metodologiya innovatsion yondashuvlarning maktabgacha yoshdagi bolalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishdagi samaradorligini aniqlash uchun ilmiy asoslangan va ishonchli vosita sifatida xizmat qildi.

Tadqiqot jarayonida maktabgacha yoshdagi bolalarda tanqidiy fikrlashni shakllantirishda bir qator innovatsion pedagogik usullar qo'llanildi. Ushbu usullar bolalarning fikrlash faoliyatini faollashtirish, savol berish va mustaqil xulosa chiqarish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qildi.

Savol-javob metodlari bolalarni faol fikrlashga undovchi eng samarali vositalardan biri sifatida qo'llanildi. Mashg'ulotlar davomida ochiq turdagi savollar, masalan, "Nima uchun?", "Qanday qilib?", "Agar shunday bo'lsa nima bo'ladi?" kabi savollar berilib, bolalarning mustaqil fikr yuritishi rag'batlantirildi. Bu usul bolalarda mantiqiy fikrlash va tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirdi.

Muammoli vaziyatlar yaratish orqali bolalar real hayotiy vaziyatlarga yaqin sharoitda muammoni anglash va yechim topishga jalb qilindi. Masalan, oddiy hayotiy muammolar — o'yinchoqni bo'lishish, vaziyatdan chiqish yo'lini topish kabi holatlar asosida bolalar turli yechim variantlarini taklif qildilar. Bu esa ularning qaror qabul qilish va muammoli fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirdi.

O'yin asosida o'rganish metodlari esa bolalar uchun tabiiy va qiziqarli muhit yaratdi. Rolli o'yinlar, didaktik o'yinlar va interaktiv mashg'ulotlar orqali bolalar muammoli vaziyatlarni modellashtirdilar, bu esa ularning fikrlash jarayonini erkin va samarali rivojlantirdi.

Tadqiqot natijalari innovatsion pedagogik yondashuvlarning bolalar fikrlash faoliyatiga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatganini tasdiqladi.

Avvalo, bolalarning fikrlash faolligi oshdi. Tajriba guruhidagi bolalar mashg'ulotlarda faol ishtirok etib, ko'proq savol bera boshladilar va muhokamalarda faol qatnashdilar. Bu esa ularning intellektual faolligi oshganini ko'rsatadi.

Mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalari ham sezilarli darajada rivojlandi. Bolalar muammoli vaziyatlarda pedagog yordamiga kamroq tayanib, o'zlari yechim topishga harakat qildilar. Bu esa ularning mustaqil fikrlash qobiliyatini mustahkamladi.

Tahlil qilish ko'nikmalari ham rivojlandi. Bolalar berilgan vaziyatni qismlarga ajratib ko'rish, sabab-oqibat bog'liqligini tushunish va oddiy xulosalar chiqarishga o'rgandilar. Bu esa tanqidiy fikrlashning muhim komponentlari shakllanayotganini ko'rsatadi.

Eksperiment davomida bolalarning tanqidiy fikrlash darajasi boshlang'ich va yakuniy bosqichlarda baholandi. Natijalar tajriba va nazorat guruhlarini kesimida taqqoslandi.

Jadval 2. Tanqidiy fikrlash ko'rsatkichlarining o'zgarish dinamikasi

Ko'rsatkichlar	Tajriba guruhi (%)	Nazorat guruhi (%)
Boshlang'ich daraja	48.5	47.9
Yakuniy daraja	62.3	52.1
O'sish darajasi	+13.8	+4.2

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, tajriba guruhida tanqidiy fikrlash ko'rsatkichlari 13,8 foizga oshgan bo'lib, bu innovatsion yondashuvlarning samaradorligini tasdiqlaydi. Nazorat guruhida esa

o‘shish darajasi ancha past bo‘lib, an’anaviy metodlarning bu boradagi imkoniyatlari cheklanganini ko‘rsatadi. Natijada savol-javob metodlari, muammoli vaziyatlar va o‘yin asosidagi yondashuvlar maktabgacha yoshdagi bolalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda yuqori samaradorlikka ega ekanligi ilmiy jihatdan asoslandi. Mazkur tadqiqot natijalari maktabgacha yoshdagi bolalarda tanqidiy fikrlashni shakllantirish zamonaviy ta’limning muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biri ekanini ilmiy jihatdan asoslab berdi. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish jarayoni an’anaviy yondashuvlarga qaraganda innovatsion pedagogik usullar asosida samaraliroq amalga oshiriladi. Ayniqsa, savol-javob metodlari, muammoli vaziyatlar va o‘yin asosidagi ta’lim bolalarning fikrlash faoliyatini faollashtirishda muhim vosita sifatida namoyon bo‘ldi.

Tadqiqot davomida tajriba guruhida tanqidiy fikrlash ko‘rsatkichlari 13,8 foizga oshgani aniqlandi, bu esa qo‘llanilgan pedagogik usullarning yuqori samaradorligini tasdiqlaydi. Bolalarda mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarni anglash va qaror qabul qilish ko‘nikmalarining rivojlanishi kuzatildi. Bu esa tanqidiy fikrlashning maktabgacha yoshdan boshlab shakllanishi keyingi ta’lim bosqichlari uchun mustahkam poydevor yaratishini ko‘rsatadi. Amaliy jihatdan quyidagi tavsiyalar ilgari suriladi: maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan innovatsion metodlarni keng joriy etish, pedagoglarni ushbu metodlar bilan ishlashga tayyorlash, o‘yin va muammoli vaziyatlarga asoslangan mashg‘ulotlarni muntazam tashkil etish zarur. Shuningdek, bolalarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda differensial yondashuvni qo‘llash maqsadga muvofiqdir. Kelgusidagi tadqiqotlar tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning raqamli texnologiyalar asosidagi yangi modellari, innovatsion pedagogik yondashuvlarning turli yosh bosqichlarida qo‘llanishi hamda ushbu jarayonning uzoq muddatli natijalarini empirik o‘rganishga qaratilishi lozim. Bu esa maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Қодирова Ф. Р., Тошпўлатова Қ., Қаюмова Н. М., Азимова М. Н. Мактабгача педагогика. – Тошкент: Тафаккур, 2019. – 384 б.
2. Содиқова Ш. А. Мактабгача педагогика. – Тошкент: Фан ва технология, 2018. – 320 б.
3. Выготский Л. С. Воображение и творчество в детском возрасте. – М.: Просвещение, 1991. – 96 с.
4. Piaget J. The psychology of the child. – New York: Basic Books, 2000. – 173 p.
5. Dewey J. How we think. – New York: Dover Publications, 1997. – 224 p.
6. Ennis R. H. Critical thinking. – Upper Saddle River: Prentice Hall, 1996. – 268 p.
7. Bruner J. S. The process of education. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1960. – 97 p.